



## DASTURLASH TILLARIGA KIRISH VA PYTHON DASTURLASH TILINI O'RGANISH

Aslonov Qodir Ziyodulayevich

*Osiyo halqaro universiteti kafedra assistenti*

Saydumarov Ibaydullo Ikromjon o'gli

*Osiyo xalqaro universiteti talabasi*

**Annotatsiya :** Ushbu maqolada dasturlash tillari haqida umumiy ma'lumotlar berilib, Python dasturlash tilining o'rganilishi va afzalliklari ko'rib chiqiladi. Dasturlash tillari kompyuterlarni inson tilida tushunadigan tarzda boshqarish imkonini beradi. Python esa o'zining soddaligi va qulayligi bilan dasturchilar orasida mashhurlikka erishgan. Maqolada Python dasturlash tilini o'rnatish jarayoni, dasturlash muhitlarini tanlash va asosiy sintaksisi haqida ham ma'lumot beriladi. Ushbu maqola, dasturlashni o'rganishni boshlayotganlar uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** dasturlash, kompyuter dasturi, dasturchi, Python, identifikator, IDLE, o'zgaruvchilarni tavsiflash.

### KIRISH

Dasturlash tillari kompyuterlar bilan muloqot qilishning asosiy vositasidir. Ular yordamida dasturchilar algoritmlarni yaratish, ma'lumotlarni qayta ishlash va turli dasturlarni ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Python dasturlash tili o'zining sodda sintaksisi, keng kutubxonalar to'plami va ko'plab sohalardagi qo'llanilishi bilan mashhur.

### ASOSIY QISM

#### · Dasturlash Tillari Turlari:

- Dasturlash tillari ko'plab turlarga bo'linadi: yuqori darajadagi tillar (masalan, Python, Java) va past darajadagi tillar (masalan, C, Assembly). Yuqori darajadagi tillar inson tiliga yaqinroq bo'lib, o'rganish va tushunish osonroqdir.

#### · Python Dasturlash Tili:

- Python 1991 yilda yaratilgan va tez orada dasturchilar orasida ommalashdi. Uning oddiy sintaksisi va ko'p funksiyali kutubxonalar mavjudligi uni o'rganishni osonlashtiradi.

- Python web dasturlash, ma'lumotlar tahlili, sun'iy intellekt va ilmiy hisob-kitoblar kabi ko'plab sohalarda keng qo'llaniladi.

#### · Pythonni O'rnatish:



• Pythonni o'rnatish jarayoni juda sodda. Rasmiy veb-saytdan ([python.org](http://python.org)) kerakli versiyani yuklab olib, oddiy qadamlar orqali o'rnatish mumkin.

• Dasturlash muhiti (IDE) sifatida PyCharm, Visual Studio Code yoki Jupyter Notebook kabi vositalar tavsiya etiladi.

· **Asosiy Sintaksis:**

• Pythonning asosiy sintaksisi juda sodda. O'zgaruvchilarni e'lon qilish, shartli bayonotlar va sikl tuzish jarayonlari oson o'zlashtiriladi. Misol uchun, quyidagi kod fragmenti oddiy "Salom, Dunyo!" chiqishini beradi:

### NATIJALAR

O'rganish va qo'llashning soddaligi. Python sodda va qulay dasturlash tili bo'lib, boshqa dasturlash tillariga nisbatan uning yordamida dastur tuzish qiyinchilik tug'dirmaydi.

Mukammal kutubxonaning mavjudligi. Pythonda dastur tuzish jarayonida kutubxonadagi tayyor funksiyalardan foydalanish mumkin. Bu esa murakkab dasturlarni ham qisqa vaqtda tuzish imkonini beradi.

Python dasturlash tilini o'rganish uchun uni o'zining rasmiy saytidan yuklab olib, keyin o'rnatish zarur. Python kompyuterga IDLE dasturi bilan birga o'rnatiladi.

IDLE dasturlashni endi boshlaganlar uchun mo'ljallangan IDE bo'lib, kod yozish uchun uncha murakkab bo'lмаган matn muharriri hamda dastur natijasi va xatolarni ko'rsatib turuvchi oynaga ega.

Har bir tilning alifbosi bo'lgani kabi dasturlash tilining ham o'z alifbosi mavjud. Python dasturlash tilining alifbosi katta va kichik lotin harflari, arab raqamlari, maxsus belgilar va xizmatchi so'zlardan tarkib topgan. Odatda, dasturlar kiritilgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishslash, shuningdek, natijani ekranga chiqarish uchun mo'ljallangan bo'ladi.

O'zgaruvchilar – o'z qiymati va turiga ega kattalik, o'zida qiymatlarni saqlaydigan kompyuter xotirasidagi yacheyka nomi. O'zgaruvchining qiymatlari dastur davomida o'zgarib turishi mumkin. Doimiy (o'zgarmas) – faqat o'qish uchun mo'ljallangan qiymatlarni saqlovchi kompyuter xotirasidagi yacheyka nomi.

Doimiylar o'zgaruvchilar kabi o'z qiymati va turiga ega. Identifikatorlar – o'zgaruvchilar, doimiylar, funksiyalar, protseduralar, modullar, dasturlarning umumiy nomi.

Dasturlarni yozishda o'zida asosiy ma'lumotlarni saqlaydigan o'zgaruvchi yoki doimiylardan foydalaniladi. O'zgaruvchilar dastur jarayonida o'zgarishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni belgilaydi, doimiydan esa o'zgarmas



ma'lumotlar uchun foydalaniladi. O'zgaruvchilar va doimiylarni belgilash uchun turli nomlar, ya'ni identifikator (identification)lardan foydalaniladi.

### MUHOKAMA

Har qanday dasturni yozish jarayonida turli xatolarga yo'l qo'yilishi mumkin. Yozilgan dasturda xatolik bo'lsa, dastur ishga tushmaydi va ekranda xato xabari paydo bo'ladi. Ma'lumki, axborot matnli, raqamli, audio, grafik va boshqa shakllarda uzatilishi mumkin. Bunday ma'lumotlarni dasturlash tillarida qayta ishlash uchun ularni turlarga bo'lish kerak.

Dasturda qo'llaniladigan ma'lumotlar turlari dasturning maqsadiga bog'liq: oddiy kalkulyator raqamlardan foydalanadi va elektron pochta manzillarini tekshirish uchun mo'ljallangan dastur matn bilan ishlaydi. Sonlar natural, butun va haqiqiy sonlarga bo'linadi. Matnli ma'lumotlar belgilar yoki satrlardan iborat bo'lishi mumkin.

Ma'lumotlar turi – bu o'zgaruvchi yoki doimiy qiymatlardagi ma'lumotlar shakli. Ma'lumotlar turi kompyuter xotirasida yetaricha joyni zaxiraga olib qo'yish uchun kerak bo'ladi. Odatda, dasturlash tillarida ma'lumotlar turi o'zgaruvchi yoki doimiy bilan birga e'lon qilinadi.

Python dinamik turlarga ajratuvchi dasturlash tili hisoblanadi. Shu sababli, Pythonda o'zgaruvchining turi u foydalanayotgan qiymat bo'yicha belgilanadi, lekin ma'lumot turini boshqa turga o'zgartirish uchun tur ko'rsatilishi shart.

### XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, har bir yangi dasturning kodini yozish ko'p vaqt talab qiladigan jarayon hisoblanadi. Shu sababli, tayyor qism dasturlardan foydalanish har bir dasturchi uchun qulaydir. Zamонави dasturlash tillarida bu jarayonni yengillashtirish uchun tayyor dastur kodlarini saqlovchi kutubxonalar mavjud.

Boshqa dasturlash tillari kabi Python dasturlash tilining standart kutubxonasi ham ko'plab tayyor kod fragmentlari (modullar, standart funksiyalar va b.)dan tarkib topgan.

Python dasturlash tili o'rnatgichidagi Batteries included (батарейки в комплекте – batareykasi bilan) izohi Python dasturlash tili majmuida ko'plab tayyor kodlar mavjudligini anglatadi. Python dasturlash tilini yanada takomillashtirish uchun foydalanuvchi tomonidan yozilgan modullarni kutubxonaning alohida qismiga yuklash ham mumkin.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boltayev B., Azamatov A., Asqarov A., Sodiqov M., Azamatova G. *Informatika va hisoblash texnikasi asoslari.* Toshkent: "Cho'lpón" nomidagi NMIU, 2015. – 160 b.
2. Kris Roffi. *Kompyuter dasturlari. Python uchun dasturlash kitobi.* – USA: Cambridge university press. 2017, – p. 204.
3. Jalolov, T. S. (2024). PYTHONNING MATEMATIK KUTUBXONALARINI O'RGANISH: KENG QAMROVLI QO'LLANMA. *BIOLOGIYA VA KIMYO FANLARI ILMIY JURNALI*, 2(5), 71-77.
4. Eric Matthes. *Python crash course: a hands-on, project-based introduction to programming.* – San-Francisco: No Starch Press, 2015. – p. 562.
5. Jeysen Briggs. *Bolalar uchun Python. Dasturlash bo'yicha qo'llanma.* – M.: Mann, Ivanov va Ferber, 2017. – 320 b
6. Jalolov, Tursunbek Sadreddinovich. "PYTHONNING MATEMATIK KUTUBXONALARINI O'RGANISH: KENG QAMROVLI QO'LLANMA." *BIOLOGIYA VA KIMYO FANLARI ILMIY JURNALI* 2.5 (2024): 71-77.
7. Jalolov T. S. PYTHONNING MATEMATIK KUTUBXONALARINI O'RGANISH: KENG QAMROVLI QO'LLANMA //BIOLOGIYA VA KIMYO FANLARI ILMIY JURNALI. – 2024. – T. 2. – №. 5. – C. 71-77.